



KONTRABAS CHOLG'USINING ZAMONAVIY IJROCHILIGI XUSUSIDA

Muallif: Omonjonova Odinaxon Farruxjon qizi ¹

Affilyatsiya: O'zbekiston davlat konservatoriyasi - “Kompozitorlik va cholg'ulashtirish” kafedrasida 1-bosqich magistr talabasi, odinaomonjonova@gmail.com ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14381495>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kontrabas cholg'usi, uning O'zbekistonga kirib kelishi, ijrochilik amaliyoti haqida qisqacha so'z boradi. Zamonaviy musiqa laboratoriyasida tashkil etilgan loyihaning mazmuni hamda ushbu amliy-ijodiy jarayonda kontrabas sozining zamonaviy ijro imkoniyatlarining qo'llanilganligi, nota matnlari bilan keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kontrabas, zamonaviy musiqa laboratoriyasi, yangi notatsiya, kompozitor va kontrabas ijrochilari, tembral taqlid, maqom, ud, dutor, sato, ansambl.

Kontrabas – torli-kamonli cholg'ularning eng kattasi bo'lib, uning uzunligi salkam ikki metrni tashkil qiladi. Ushbu cholg'uda 4 tor bo'lib, kvarta oralig'ida sozlanadi. Birinchi va ikkinchi torlari kontroktavaning mi va lya tovushlariga, uchinchi va to'rtinchi torlari esa, katta oktavaning re va sol tovushlariga sozlanadi. Ovoz hajmi kontroktava mi tovushidan – birinchi oktava mi tovushiga qadar davom etadi. Mazkur cholg'u asosan simfonik va o'zbek xalq cholg'ular orkestrlarida bas fundamentini to'ldirish uchun ijro qilinadi. Kontrabas cholg'usi takomillashuvining dastlabki yillarida bu sozni yakka holda ijro etilishiga kamdan kam tarzda duch kelish mumkin edi.

XVIII asrning o'rtalarida kontrabas sozi alohida (solist) ijroda ham qo'llanila boshlagan va mazkur cholg'uning mohir ijrochilari ham paydo bo'la boshlaganlar. Mashhur kontrabas ijrochilari: Domeniko Droganetti, Jovanni Battezini, Frantishek Simandl, Sergey Kusevetskiy, Iosef Gertovich, Aleksandr Milushkin, Radion Azarxinlar shular jumlasidandir. Kontrabas sozi O'zbekistonga ham XX-asr boshlarida kirib kelib, ansambl va orkestrlarda qo'llanilib kelinmoqda.

Ushbu sozning ijrochiligini yanada rivojlantirish va mutaxassis kadrlarni yetishtirishda O'zbekiston davlat konservatoriyasi “Torli cholg'ular” ijrochiligi bo'limida kontrabas sinfi tashkil qilindi.

Bir necha yillar davomida o'zining ma'lum maktabiga ega bo'lgan o'zbek kontrabas ijrochiligida G'arbiy Yevropa kompozitorlari o'quv dasturlarida muntazam ravishda joy olgan. Xorijiy kompozitorlarning asarlari, yoki orkestrlarning bas fundamentini ijro qilish bilan cheklanadigan kontrabas cholg'usini yakkaxon tarzda, zamonaviy ijro imkoniyatlari bilan namoyish qilish maqsadida O'zbekiston davlat konservatoriyasida faoliyat olib borayotgan Zamonaviy musiqa laboratoriyasi yangi

loyiha ishlab chiqdi. Ushbu loyihada oliygohning kompozitor va kontrabas ijrochiligi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etdilar.

Mazkur ijodiy loyiha Amerikalik mashxur kontrabas ijrochisi, kompozitor Robert Black hotirasiga bag'ishlangan bo'lib, o'z oldiga bir necha ustuvor strategiyalar, xususan, yosh talaba-kompozitor hamda kontrabas ijrochilari o'rtasida o'zaro ijodiy aloqa o'rnatish, har bir loyiha ishtirokchisi kontrabas cholg'usi uchun zamonaviy notatsiyada asar bastalash, mazkur cholg'uning yangi ohang effektlarini izlab topish va uni ijrochilik amaliyotiga tadbiiq etish, chet el bastakorlari tomonidan yaratilgan zamonaviy asarlarning notatsiyasini o'qish, belgilarini to'g'ri ijo etib bera olish ko'nikmasini oshirish kabi maqsadlarni qo'ydi.



Kompozitor va kontrabaschi talabalarning ijodiy aloqasi har ikki yo'nalish vakillari uchun ham juda manfaatli hisoblanadi. Yosh kompozitorlar kontrabas cholg'usining imkoniyatlari, asarni cholg'u uchun qulay notaga olish, yangi ijro ijro texnikalari bilan yaqindan tanishib, cholg'u uchun mutlaqo zamonaviy uslubda asar yaratish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Kontrabas ijrochilari esa ushbu sozda o'zbek milliy cholg'ularining tembriga taqlid qilgan holda ijro etish ko'nikmalarini hosil qildilar. Shu bilan bir qatorda, musiqa asarlarining shakli, tuzilish strukturalarini ham nazariy va amaliy o'rgangan holda, o'zlarining mualliflik asarlarini yaratdilar. Ushbu asarlar kontrabas ijrochiligi yo'nalishining o'quv dasturlariga kiritilishi borasida bir necha takliflar kiritilgan.

Loyiha ishtirokchilari tomonidan bastalangan asarlar mutlaqo yangicha va zamonaviy tarzda yangradi. Kontrabasdagi sharqona musiqiy cholg'ular tembrini yangrashi ushbu ijodiy amaliyotning yuqori samarasini ko'rsatib berdi. Ud, dutor, g'ijjak, sato, doira kabi o'zbek milliy musiqa cholg'ularining ohangini mukammal ko'rsatib berishda zamonaviy ijrochilik texnikalaridan foydalanilgan. Har bir kontrabas ijrochisi yuqorida ko'rsatilgan cholg'ular uchun o'z asarlarini bastaladi.

Kontrabas ijrochisi, talaba Muzaffar Tillayev qalamiga mansub asarda ud cholg'usiga taqlid qilingan. Asarning kompozitsiom tuzilishi esa o'zbek milliy mumtozi musiqasi bo'lmish "Shashmaqom"ning cholg'u bo'limidagi kuylar shaklida bastalangan. Yakkaxon tarzda, kamonsiz, barmoq bilan ijro etiladi. Zamonaviy elementlar, nota cho'zimlarining turli variantlari, akkordlarning arpedjio shaklida olinishi, badihago`ylikni o'z ichiga olgan ushbu asarda kontrabas ham o'z imkoniyatini, ham ud cholg`usi imkoniyatini yaqqol ko'rsatib beradi.

1xona
Contrabass

5
Cb.

8 2xona
Cb.

Yana bir asarni misol tariqasida keltirish mumkin. Loyiha ishtirokchisi mohir kontrabas ijrochisi Norbek Buronboyev bastalagan "Dutor" asarida milliy cholg'ular ansamblini tinglash mumkin.

1 Double Bass

2 Double Bass

3 Double Bass

4 Double Bass



– nota matndagi ushbu belgida kontrabasning barcha torini barmoqlarda chertib chalish ma'nosini anglatadi. Asar boshidan oxiriga qadar huddi shu ijro uslubda yangraydi. O'zbek milliy cholg'usi bo'lmish dutor sozining kontrabasda yangi tembrda yangrashini ko'rish mumkin. Bunda tinglovchi dutor va kontrabasning o'zaro suhbatini tinglaydi.



O'zbek notatsiyasida dutor uchun qanday yozilsam deyarli ana shu yozuv uslubidan foydalanilgan. Lekin ijro masalasida zamonaviy harakat, barmoqlar pozitsiyasini o'zgarib ketilishi yuqori professional ijrochilikni talab qiladi.

Loyiha davomida ishtirokchilak ko'plab zamonaviy asarlar va ularning nota yozuvlar taxlilini o'rganib kompozitorlik mahoratini yanada oshiridilar. Bu jarayon esa bevosita har bir ijrochiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Kontrabasning dekasiga urish orqali zarbli cholg'ularga taqlid qilib asar bastalagan Ayubxon No'monovning asari butunlay boshqacha uslubda yozilgan:



Kontrabasning torlari hamda dekasida turli hil tovush effektlarini chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldi va ularni notada namoyish qilib berdi.

Loyiha badiiy rahbari, O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" kafedrasida dotsenti, iqtidorli kompozitor Jahongir Shukurning ta'kidlashida ushbu ijodiy loyiha o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni uddasidan chiqdi. Zamonaviy musiqa laboratoriyasida kontrabas cholg'usining turli imkoniyatlarini o'rganish, yangi qirrlarini ochish o'zbek musiqa san'atining yana bir pog'ona yuqoriga ko'tarilganida dalolatdir. O'zbek mumtoz musiqa an'analari asosida jahon standartlariga mos zamonaviy asarlar bastalash hademay O'zbekistonda ham yuqori reytingni egallashiga ishonchimiz komil.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Abdullayeva O. Cholg'ushunoslik. – Toshkent. 2018.
 Rakov L.V. Kontrabas san'ati tarixi. – Moskva. 2004.
 Saydaliyev Y. Kontrabas. – Toshkent. 2015/
 Nota matnlari muallif tomonidan taqdim etildi.